

QO‘QON XONLIGI HUKMDORLARI ISM VA LAQABLARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.034>

Xalilova Nilufarxon Bahromovna
nbxalilova@kokanduni.uz
ORCID 0009-0004-2957-7409
Qo‘qon universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo‘qon xonligi davri antroponimiyasi lisoniy va tarixiy-etimologik jihatdan tadqiq etiladi. Xususan, Qo‘qon xonlari va xonzodalari nomlari tizimi, ularning ismlari, laqablari, unvon bilan shakllangan antroponimik birliklari hamda ota-ism modellari tahlil qilinadi. Antroponimlarning nominatsion-motivatsion asoslari, semantik qatlamlari, diniy, istak va tasviriy nomlash an‘analari misollar orqali yoritiladi. Shuningdek, hukmdorlar nomlarida sulolaviy davomiylik, diniy e‘tiqod, ijtimoiy maqom va unvon ifodasining aks etishi ko‘rsatib beriladi. Maqolada hukmdorlar ismlarining arabiy, forsiy va turkiy manbalarga mansubligi, diniy-islomiy qadriyatlar bilan bog‘liqligi, shuningdek, sulolaviy an‘ana va siyosiy legitimatsiya vositasi sifatidagi funksiyasi yoritiladi. Jumladan, *Shohruxbiy*, *Olimxon*, *Umarxon*, *Muhammad Alixon*, *Xudoyorxon* kabi hukmdorlarning nomlari misolida “xon”, “bek”, “biy”, “amir”, “shoh”, “Muhammad”, “ali” kabi komponentlarning semantik yuklamasi ochib beriladi. Shuningdek, laqablarning siyosiy qudratni ifodalovchi (masalan, “Bahodir”, “G‘oziy”), diniy e‘tiqod va tasavvufiy qarashlarni aks ettiruvchi, shaxsiy fazilat va xarakter belgilarini bildiruvchi semantik turlari tasniflanadi. Ism va laqablarning qo‘llanish doirasi, tarixiy manbalardagi variantlari, fonetik va morfologik o‘zgarishlari ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida Qo‘qon xonligi hukmdorlari onomastik tizimida diniy-islomiy leksika ustuvorligi, forsiy-adabiy ta‘sirning sezilarli darajasi hamda turkiy siyosiy terminologiyani faol qo‘llangani aniqlanadi. Maqola tarixiy onomastika, leksikologiya va semasiologiya yo‘nalishlarida olib boriladigan tadqiqotlar uchun nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, antroponimiya, antroponim, tarixiy onomastika, laqab, unvon, xon, biy, bek, semantika, nominatsiya

LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF THE NAMES AND NICKS OF THE RULERS OF THE KOKAND KHANAGE

Khalilova Nilufarkhon Bahromovna

nbxalilova@kokanduni.uz
ORCID 0009-0004-2957-7409
Kokand University

Abstract: This article studies the anthroponymy of the Kokand Khanate period from a linguistic and historical-etymological perspective. In particular, the system of names of the Kokand khans and khanates, their names, nicknames, titles, and patronymic units formed by their names, nicknames, and patronymic models are analyzed. The nominative-motivational foundations of anthroponyms, semantic layers, religious, aspirational, and descriptive naming traditions are illustrated through examples. The reflection of dynastic continuity, religious beliefs, social status, and title expressions in the names of the rulers is also shown. The article examines the affiliation of the names of rulers to Arabic, Persian and Turkic sources, their connection with religious and Islamic values, as well as their function as a means of dynastic tradition and political legitimation. In particular, the semantic load of components such as “khan”, “bek”, “biy”, “amir”, “shah”, “Muhammad”, “ali” is revealed on the example of the names of rulers such as Shahrukhbiy, Olimkhan, Umarkhan, Muhammad Alikhan, Khudoyorkhan. Also, semantic types of nicknames that express political power (for example, “Bahodir”, “Ghazi”), reflect religious beliefs and mystical views, and indicate personal virtues and character traits are classified. The scope of application of names and nicknames, their variants in historical sources, phonetic and morphological changes are also analyzed. The research results reveal the primacy of religious-Islamic lexicon, a significant degree of Persian-literary influence, and the active use of Turkic political terminology in the onomastic system of the rulers of the Kokand Khanate. The article is of theoretical and practical importance for research in the areas of historical onomastics, lexicology, and semasiology.

Keywords: Kokand Khanate, anthroponymy, anthroponym, historical onomastics, nickname, title, khan, biy, bek, semantics, nomination

Kirish

Qo‘qon xonligi - o‘zbek xonliklaridan biri (1709-1876). Poytaxti - Qo‘qon. XVII asr oxiri - XVIII asr boshlarida Buxoro xonligida ichki nizolar tufayli markaziy hokimiyat zaiflashgan. Xonlik tarkibiga kirgan viloyatlarda mustaqillikka intilish kuchaygan. Natijada 1709-yilda Farg‘ona vodiysida Qo‘qon xonligi vujudga kelgan. Unga minglar urug‘idanbo‘lgan Shohruxbiy asos solgan. Bu davlat tarkibiga dastlab Qo‘qon, Namangan, Marg‘ilon, Konibodom, Isfara va ularning atrofidagi qishloqlar kirgan¹. Xonlikka aloqadorlik, sulolaviy davomiylik va bog‘liqlik hukmdorlarning ism

¹ Қўқон хонлиги // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 11-ж. – Б. 156.

va laqablarida ham ifodalangan. Qo‘qon xonligi asoschisi va birinchi xoni (1709-1721) *Shohruxbiy* (tax. 1680/1681-1721) o‘zbeklarning ming sulolasiga mansub bo‘lgan. 1709-yilda Qo‘qon xonligini Buxoro amirligidan mustaqil deb e‘lon qiladi va umrining oxirigacha hukmronlik qiladi².

Adabiyotlar sharhi

Shohruxbiy mansub bo‘lgan *ming* etnonimi xususida quyidagilarni qayd etish mumkin. Qadimdan ma‘lumki, mamlakat taxtiga o‘tirish va unga hukmronlik qilish uchun Chingiz yoki Afrosiyob avlodidan bo‘lish zarur bo‘lgan. Shohruxbiy esa Chingiz avlodidan ham, Afrosiyob avlodidan ham bo‘lmaganligi uchun saroy kishilari tomonidan “Oltin beshik” afsonasi to‘qib chiqariladi. Ushbu afsonaga ko‘ra, Kobul tomon yo‘lga otlangan Zahiriddin Muhammad Bobur Farg‘ona vodiysida tug‘ilgan chaqalog‘ini oltin beshikka soladi va uni o‘sha yerda qoldirib ketadi. Keyinchalik o‘zbek qabilalari vodiyan beshikni topib oladilar va bolani voyaga yetkazadilar. Beshikdagi bola voyaga yetgach, undan *Sulton elik*, *Sulton elikdan* esa *Xudoyor*, *Muhammad Amin*, *Abulqosim*, *Shohmastbiy* (*Chamasbiy*), *Hojibiy*, *Ashurbiy*, so‘ng *Shohruxbiylar* dunyoga keladi.

Shohruxbiy 12 yil hokimiyat tepasida turib, 13-yili, ya‘ni 1721-yilda vafot etadi. Manbalarda uning ismi *Shohrux*, *Shohruxxon* variantlarida kuzatiladi. Ism *shoh*, *ruх* lug‘aviy birliklari va *biy* indikatoridan tarkib topgan. E.Begmatov ismga *viqorli*, *kelishgan*, *chiroyli*, *zebo* yoki *shaxmatdagi shoh ruxi* deb izoh beradi³.

Shohruxbiydan *Abdurahimbiy*, *Abdulkarimbiy* va *Shodibiy* ismli uch nafar o‘g‘il qoladi. Vafotidan so‘ng uning o‘rniga xonlikni to‘ng‘ich o‘g‘li *Abdurahimbiy* boshqaradi.

Abdurahimbiy (1700 - 1733, Xo‘jand) - Qo‘qon xoni (1721 - 1733). Mazkur ism tarixiy-etimologik jihatdan arabcha bo‘lib, *rahm-shafqatli*, *kechiruvchining*, ya‘ni *Allohning quli* demakdir⁴.

Shohruxbiyning ikkinchi o‘g‘li *Abdulkarimbiy* (1701-1750) akasi Abdurahimbiy vafot etgach (1733), taxtga o‘tirgan, 1733-1750-yillarda Qo‘qon xoni bo‘lgan.

Abdulkarim antroponimi tarixiy-etimologik jihatdan arabcha bo‘lib, *karamli*, *saxovatli*, *kechirimlining*, ya‘ni *Allohning quli* degan ma‘noni anglatadi.

Sulaymon ibn Shodixon (1748-1778) Qo‘qon xonligida 12 yil hukmronlik qilgan. Erdonabiy vafot etgach (1762), Shodibiyning o‘g‘li *Sulaymonxon* taxtga o‘tqaziladi, lekin suiqasd tufayli (1762-1763) uch oy (boshqa manbalarga ko‘ra olti yarim oy) hukmronligidan so‘ng o‘ldiriladi. Sulaymonbekning qotillari Abdulla Qush G‘urumsaroy hokimi O‘tov bakavul va yana bir qancha qo‘qonlik aslzodalar

² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 10-ж. – Б. 114.

³ Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б. 506.

⁴ Qarag‘. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б.18.

Norbo‘tabiyni davlat boshqaruv ishini qabul qilib olishga ko‘ndiradilar va uni xon deb e‘lon qiladilar.

Bobobek ismi turkiy *bobo* va *bek* so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, *marhum buvasi, bobosining ismi berilgan bola* ma‘nosini anglatadi. Ba‘zi manbalarda *bobo* (a.) so‘zi *ota, diniy rahnamo, ulug‘ shayx* ma‘nolarida ham qo‘llanadi. Bizningcha, unga bobolariga o‘xshasin degan maqsadda shunday ism berilgan. Keyinchalik u *bek* unvonini olgan va *Bobobek* deb ataladigan bo‘lgan.

Erdonabiy (1720-1764, Qo‘qon) - 1751-1764-yillarda Qo‘qon xonligida hukmronlik qilgan, o‘zbeklarning ming sulolasiga mansub beshinchi xon. 1750-yilda Abdulkarimbiy vafot etgach, Qo‘qon xonligida hokimiyat uning o‘g‘li Abdurahmonbiyga, 10 oydan keyin esa taxt uning jiyani *Erdonabiy ibn Abdurahimbiyga* o‘tadi.

Erdonabiyning asli ismi *Abdulqayumxon* bo‘lgan. Ism tarixiy manbalarda *Erdonabek, Erdonaxon* variantlarida kuzatiladi.

Xudoyorxonzoda Erdonaxon laqabini quyidagicha tavsiflaydi: “*Er degani alifning kasrasi va yoning sukuni bilan turkchada dalir (shijoatli, botir) va jasur kishi, yovqur (hech narsadan qo‘rqmaydigan) degani. Uning asli ismi Abdulqayumbek bo‘lgan. Ulug‘ amakisi jannatmakon Abdulkarimxon davrida undan ko‘p mardlik va hushyorlik zohir bo‘lgan. Bu o‘lkaning turklari uni “Eri dono” deya boshladilarki shu bilan mashhur bo‘la boshladilar*”. (“Anjum at-tavorix”, 123-b.)

Erdonbiy ismining lug‘aviy asosi o‘zbekcha *erdon* so‘zi bo‘lib, *qahramon, bahodir* ma‘nolarini anglatadi⁵. Demak, *Erdonbiy* ismi *qahramon, bahodir biy* degan antroponimik ma‘noni anglatadi.

Sulaymonbek ming qabilasining biyi, Qo‘qon begi (1769-1770 (1778) Shodibiyning o‘g‘li, 1762-1763-yillarda 3 oy hukmronlik qilgan. (2-marta).

Qo‘qon xonligida 12 yil hukmronlik qilgan Erdonabiy vafot etgach (1762), Shodibiyning o‘g‘li *Sulaymonbek* taxtga o‘tqaziladi, lekin suiqasd tufayli uch oy hikmronligidan so‘ng o‘ldiriladi. *Sulaymonbekning* qotillari Abdulla Qushbegi, G‘urumsaroy hokimi O‘tov Bakavul va yana bir qancha qo‘qonlik aslzodalar Norbo‘tabiyni davlat boshqaruv ishini qabul qilib olishga ko‘ndiradilar va uni xon deb e‘lon qiladilar⁶.

Abdulkarimbiyning nabirasi, taxminan Abdurahmonxonning o‘g‘li. o‘zbeklarning ming sulolasiga mansub *Norbo‘tabiy* (1749-1798) 14 yoshidan taxtga chiqqan va 1763-1798-yillarda Qo‘qon xoni (Namangan beklarining separatizmini bostirgan. Qo‘zg‘olon ko‘targan Xo‘jand begini yengib, shaharni o‘ziga bo‘ysundirgan. Ammo O‘ratepa nomigagina Buxoro amirligiga tobe bo‘lib qolgan. *Norbo‘tabiy* hukmronligining so‘nggi yillarida akasi Hojibek O‘ratepa va Qurama

⁵ Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б. 513.

⁶ Sulaymonbek (ziyouz.com)

hokimlari yordamida isyon ko'tarmoqchi bo'lgan. U To'raqo'rg'on va Andijonni maskan tutgan. Norbo'tabiy Andijonga qo'shin tortib, akasi bilan sulh tuzgan.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda tarixiy-lisoniy, onomastik, leksik-semantik va komponent tahlil metodlari qo'llaniladi. Tadqiqot sifat (qualitative) va qisman miqdoriy (quantitative) tahlil asosida olib boriladi.

Tadqiqotning metodologik asosi quyidagilarga tayanadi:

- Tarixiy-lisoniy tamoyil (ism va laqablarning davriy shakllanishi)
- Onomastik yondashuv (antroponim va laqablarning tizimli o'rganilishi)
- Semantik maydon nazariyasi
- Komponent (sem) tahlil usuli
- Kontekstual tahlil

Jumladan, *Norbo'tabiy* antroponimi tuzilishiga ko'ra qo'shma tarkibli bo'lib, *nor*, *bo'ta* va *biy* birliklaridan tarkib topgan. Demak, ismga forsha *nor* va o'zbekch *bo'ta* so'zlari lug'aviy asos bo'lgan.

Nor so'zi omonim bo'lib quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

Nor I.1. Bir o'rkachli erkak tuya.

1. Umuman, erkak tuya.
2. Ko'chma. Baquvvat, mard yigit.

Nor II. (f. tamg'a, belgi) 1. Badandagi tug'ma qizg'ish dog'.

2. Nor (erkak va ayollar ismi).

Nor III. (F. anor daraxti va mevasi). *ayn.* anor.

Nor. IV. (a. olov, yong'in; do'zax) *esk. kt.* O't, olov⁷.

Ismga *nor* so'zining *badandagi tug'ma qizg'ish dog'* va *baquvvat, mard* ma'nolari lug'aviy asos qilib olingan. O'zbek xalqida badanida qizil xoli yoki qizillik belgisi bilan tug'ilgan bola yoxud bir o'rkachli tuyadek kuchli, qudratli tug'ilgan bolaga *Nor* deb ism beradilar. *Nor* ismi o'zbek lingvomadaniyatida *Norbek, Norboy, Norjon, Norxon* variantlarida uchraydi⁸.

O'zbek tilida *bo'ta* so'zi ko'p ma'noli bo'lib quyidagi semalarni ifodalaydi:

1. Tuyaning bir yoshgacha bo'lgan bolasi, bo'taloq. *Sabr qilsang, tuyaning yukini bo'ta ko'tarar.* Maqol.

2. Ko'chma. Bolalarni, yoshlarni bo'taloqqa qiyos qilib, erkalatib aytiladigan so'z. *Lekin, bo'tam, bu fikrga men uncha qo'shilmayman.* X.To'xtaboyev. Shirin qovunlar mamlakati⁹.

⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2023. – 2-j. – B. 401.

⁸ 291-b.

⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2023. – 1-j. – B. 702.

Demak, *Norbo'tabiy* antroponimi *badanida qizil xoli bilan tug'ilgan erkato'y, mard bola* ma'nosini anglatadi.

1798-yilda *Norbo'tabiy* vafot etgach, uning o'g'li *Olimxon* (1798-1810) davlat hukmdori deb e'lon qilindi.

Olimxon (? - 1810), birinchi Qo'qon (1798-1809 (1807-1816)). Qo'qon xoni. *Minglar* sulolasidan. *Norbo'tabiy*ning o'g'li. Uning davrida saltanat hududini kengaytirish davom ettiriladi. U Ohangaron, Chimkent, Sayram, Toshkent viloyatining hammasini, Rossiyaga boruvchi karvon yo'llaridagi muhim manzilgohlarni zabt etadi. U Buxoro amirligiga qarshi turishga kuchi yetajagini ko'rib *xon* unvonini qabul qiladi, davlati esa *Qo'qon xonligi* deb atala boshlandi. Poytaxt - Qo'qonning siyosiy ahamiyati oshgan. *Olimxon* tog'li tojiklar: qorateginlar, sho'g'nonliklar, badaxshonliklar, eroniylar va boshqalardan iborat yollanma qo'shin tuzgan. Bu qo'shin hokimiyatni markazlashtirish uchun kurashda uning tayanchi bo'lgan. *Olimxon* davrida Rossiya bilan 1-marta savdo aloqalari o'rnatilgan. *Olimxon* diniy sohada ham o'zgarishlar qilishga intilgan, xususan, diniy unvon hisoblangan "eshon"ni bekor qiladi, kambag'al, bechoralarga va qalandalarga yer maydonlari va chorva beradi, shu bilan ularni ijtimoiy-foydali mehnatga jalb qiladi. Ayrim diniy arboblarni imtihon qiladi va fosh qilinganlarni jazolaydi. Ulamolar uning bu hatti-harakatlaridan norozi bo'ladilar. Uning Toshkentdaligidan foydalanib, fitna uyushtiradilar, u o'ldiriladi, deb mish-mish tarqatadilar. Taxtga uning ukasi *Umarxon* o'tkaziladi. *Olimxon* xiyonatni bilib qolib, qisqa yo'l bilan Qo'qonga jo'naydi. Yo'lda qo'yilgan pistirma *Olimxonni* otib o'ldiradi¹⁰.

Qo'qon xonligining mavqeyi, ayniqsa, *Olimxon* zamonida yuksaladi. Avvalo, mazkur hukmdor xonlik maqomini qabul qilgani bilan mashhurdir. Minglarning undan keyingi namoyandalari ham xon maqomida bo'lganlar. Shu sababdan ham 1709-1876 yillari markazi Farg'ona vodiysi hisoblangan va minglar nomi bilan bo'g'liq siyosiy birlikni Qo'qon xonligi deyish odat tusiga kirgan.

Olimxon Qo'qon xonligining kuchayib borishida o'zini ko'rsatganlardan biridir. 1805-yili u Xo'jandni egallab, yuqorida aytilganidek, Farg'ona vodiysi uchun strategik ahamiyat kasb etgan mazkur chegarani uzil-kesil xonlik tarkibiga kiritadi. 1809-yili esa XVIII asr oxirlaridan boshlab mustaqil bo'lib olgan va shayx Xovand Tohur (hozirda Shayxontohur nomi bilan mashhur XIV asrning ko'zga ko'ringan din peshvolaridan) avlodlaridan bo'lmish Yunusxoja (1784-1801) yetakchilik qilayotgan Toshkent viloyatini ham Qo'qonga bo'ysuntirishga erishadi. Natijada Sayram va Chimkent tomonlarga qarab siljish imkoni tug'iladi. Shu tariqa u Turkiston (Yassi) va Avliyo otagacha bo'lgan yerlarda harbiy yurishlar uyushtiradi.

¹⁰ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 6-ж. – Б.509.

Olimxon harbiy islohot o'tkazib, Xo'jandni, Ohangaron vohasini, Toshkent, Chimkent va Turkistonni o'ziga bo'ysuntirdi. Natijada, Rossiya bilan savdo yo'li ochiladi. U o'z davlatini 1805-yili rasman *Qo'qon xonligi* deb e'lon qildi, o'ziga esa "**xon**" rutbasini oldi va uni rasman *Olimxon* deb atay boshlashdi. Olimxonning markazlashgan nisbatan kuchli davlat tuzishga intilayotganligi ayrim qabila boshliqlari orasida keskin norozilik tug'dirdi. Natijada, ular Qo'qonda «Olimxon Toshkentda o'ldi» deb mish-mishlar tarqatishadi va uning ukasi Umarbekni xon deb e'lon qiladilar. Olimxon bundan xabar topib Qo'qonga bormoqchi bo'ladi, ammo, yo'lda Oltiqush mavzeyida andijonlik Qambar mirzo sheriklari bilan Olimxonni otib o'ldiradilar.

Sayyid Muhammad Umarxon (1787-Qo'qon-1822) Qo'qon xoni (1809-1822 (1816-1821), zullisonayn shoir, *Norbo'tabiyning* o'g'li. O'zbeklarning ming urug'idan. Boshlang'ich savodini oilada chiqarib, keyin madrasada tahsil olgan. Yoshligidan saroy xizmatiga jalb qilingan: akasi - Qo'qon xoni *Olimxonning* davlatni boshqarish ishlarida faol ishtirok etgan. Olimxon 1807-1808 yillarda unga Farg'ona hokimligini topshirgan. Shu yillarda u Andijon hokimi Rahmonqulibiyning qizi *Mohlaroyim (Nodiraga)*ga uylangan.

Natijalar va tahlil

XIX asrning 1-yarmida Qo'qonda o'ziga xos ilmiy-madaniyat muhit vujudga kelgan - uning boshida turgan ma'rifatparvar hukmdor Umarxon ilm, madaniyat, san'at, adabiyot, turli kasb-hunarlarining rivojiga katta etibor berilgan, madrasalarda o'qish-o'qitish ishlarini yaxshilagan, turli hunar maktablari ochilishini qo'llab-quvvatlagan. O'zi ham *Amiriy* taxallusi bilan she'rlar yozgan. Uning atrofida 70 dan ortiq shoir yig'ilgan. 1821-yilda Fazliy Namangoniy Umarxon amriga binoan, 63 shoirning she'rini o'z ichiga olgan «Majmuai shoiron» to'plamini tuzgan. Uni ulug'lab qasidalar yozish, g'zallarga tatabbular bog'lash bu shoirlar ijodida yetakchi o'rin tutgan.

Umarxon ismining lug'aviy asosi arabcha bo'lib, *barhayot, yashaydigan* ma'nolarini anglatadi. Bu chorayorlar deb ataluvchi to'rt xalifaning ikkinchisi Umar ibn Hattobning ismi bo'lgan. Ism manbalarda *ziyoratchi hoji* deb ham talqin etilgan. Bizningcha, unga xuddi ana shu Umar ibn Hattobga havas qilib shunday ism berishgan.

Umarxonning merosxo'ri etib uning 12 yoshli o'g'li Muhammad Ali (Madali) (1822-1842-yy.) tayinlandi. Sayyid Muhammad Alixon (Madalixon) (1809, aprel - 1842), Qo'qon xoni Sayyid Muhammad Umarxonning o'g'li (1822-1842 (1821- 1842-yil aprel)).

Madali Muhammad Ali ismining qisqargan varianti. Bu ism hozir ham o'zbek tilida shu variantda uchraydi.

Muhammad antroponimi arabcha ismlar qatlamiga mansub bo'lib, maqtovga, olqishlarga sazovor ma'nosiga ega. Muhammad payg'ambar (Muhammad ibn Abdulloh)ning ismi.

Muhammad (s.a.v.) oliy martabali, yuksalgan, ulugʻvordir¹¹.

Ali (a.) - eng yuksak, eng ulugʻ, yuqori martabali. Bu nom Muhammad (s.a.v.)ning kuyovi, toʻrtinchi xalifaning ismidir¹².

Sulton Mahmudxon (? - 1842-yil aprel), Qoʻqon xoni Sayyid Muhammad Umarxonning oʻgʻli (1842-yil aprel).

Amir Nasrullo - Buxoro xoni, Qoʻqon xoni (1842-yil 5-aprel - 1842-yil 18-aprel) *Mangʻitlar* sulolasidan boʻlgan Buxoro amiri.

Sayyid Muhammad Sheralixon (1792-1845), Hojibiyning oʻgʻli, Abdurahmonning nabirasi, Qoʻqon xoni Abdulkarimbiyning nevarasi (1842-1845-yillar).

Sheralixon (Sheralixon ibn Hojibek ibn Abdurahmonbek ibn Abdulkarimxon ibn Shohruxxon, 1790-91 tugʻ. - 1844-yil vaf.) - 1842-1844-yillarda Qoʻqon xoni boʻlgan, Xudoyorxonning otasi.

Sheralixonning toʻliq ismi Avazmuhammad attor Xoʻqandiyning "Tarixi jahonnamoyi" asarida *Amir Sayyid Shermuhammad Ali Bahodirxon* tarzida berilgan: *Amir Sayyid Shermuhammad Ali Bahodirxon va uning saltanat taxtiga chiqib oʻtirgani hamda shahar qalʼasini qurdirgani zikri.* (T.jahonnamoyi, 20)

Antroponim *sher* va *ali* lugʻaviy birliklaridan tarkib topgan. Tarixiy-etimologik manbasiga koʻra forscha *sher* lugʻaviy birligi *arslon*, *arslondek jasur*, *qahramon* yoki sanskritcha tilda *sher* - tosh, yaʼni mustahkam, mahkam maʼnolarini anglatadi.

Allohning ismlaridan biri sifatida *Al-Aliy ulugʻ martabali*, *buyuk* maʼnolarini anglatadi¹³. Demak, *Sherali* ismi *sherdek jasur*, *dovyurak oʻgʻilni Alloh (Al-Aliy) oʻz panohida asrasin* maʼnosiga ega.

Murodxon - Olimxonning oʻgʻli, Qoʻqon xoni (1845, 11 kun). Isfara hokimi Sotiboldi dodxoh Qoʻqon xoni Sheralixonga qarshi fitna uyushtiradi, bu ishga Murodxon ham tortiladi. Ular Musulmonqul mingboshi qirgʻizlar isyonini bostirish uchun ketganidan foydalanib xonni asirga oladilar va Murodxonni xon deb eʼlon qiladilar. 3 kundan soʻng Sheralixon oʻldirilgan, saroyi talanib, oʻgʻillari qamoqqa olingan. Qoʻqon aholisi taxt oʻzgarishidan norozi edi, buning ustiga yangi xon oʻzini Buxoro amirining noibi deb eʼlon qilgan. Musulmonqul bu voqeadan xabardor boʻlib oʻz qabiladoshlari boʻlgan qipchoqlarni toʻplab, Murodxonga qarshi hujum qilgan. Ular Namangan begi Xudoyorxonni oʻzlari bilan olib kelishadi. Qipchoqlar uni oq kigizga oʻtqazib xon qilib koʻtaradilar. Musulmonqul qoʻshini Murodxonning qirgʻizlardan iborat unchalik katta boʻlmagan qoʻshinini tezlik bilan yengib, oʻrdasini egallab oladi va atigi 7 kun xon boʻlgan Murodxon qatl etiladi.

¹¹ Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б. 264.

¹² Бегматов Э. Ўша луғат, 28-б.

¹³ Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари изоҳи. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б. 10.

Sayyid Muhammad Xudoyorxon III - Sayid Muhammad Sheralixonning o'g'li, Qo'qon xoni (1845-1851-y.1-marta)

Qo'qon xonligidagi ichki kurashlardan foydalangan Rossiya imperiyasi xonlikka tegishli Turkiston, Chimkent (1864-y) va Toshkentni (1865-y.) bosib olgan. 1865-yilda Qo'qon taxtiga *Xudoyqul* («*Belboqchixon*» degan laqabi ham mavjud) o'tirgan. Ammo u 14 kundan so'ng xazinani o'zi bilan olib Qashqarga qochib ketgan. Bundan foydalangan Xudoyorxon yana taxtga chiqqan.

Sayyid Muhammad Xudoyorxon (1830-1881). Qo'qon taxtiga 3 marta (1844-1858; 1862-1863; 1865-1875) kelgan podshoh. Antroponim tarkibidagi *sayyid* - Muhammad (sav) avlodlari. O'sha avlodga mansub payg'ambar avlodining faxriy unvoni.

Xudoyor antroponimi *xudo* va *yor* apellyativlaridan tarkib topgan, bo'lib qo'shma tarkibli ismlar guruhiga mansub. Ismning lug'aviy asosi forsha *xudo* so'zi Alloh, Tangri, hokim, ega; ulug', muqaddas ma'nolarini anglatadi. Ism *Alloh yor bo'ladigan, qo'llaydigan bola* ma'nosini bildiradi¹⁴.

O'zbek tili antroponimiyasida *xudo* tarkibli *Xudobaxsh, Xudoberdi, Xudodod, Xudoybaxsh, Xudoybergan, Xudoyberdi, Xudoyboq, Xudoymurod, Xudoynazar, Xudoynur* kabi o'nlab ismlar xalqimizning milliy va diniy an'analari, urf-odatlar, e'tiqod va tasavvurlari natijasida yuzaga kelgan¹⁵.

Bolaning sog'lom bo'lishi, kelajagi unga qo'yiladigan ism bilan bog'liq bo'ladi deb ishonishgan. Chaqaloqqa berilgan nom uning taqdiri, kelgusi hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi, ism odamning ruhiyati, taqdirini o'zida mujassam qiladi, bola o'z nomiga mos bo'lishga, o'xshashga harakat qiladi, deb hisoblashgan. Shunday orzu-istaklar bilan Sheralixon o'g'liga Xudoyor deb ism qo'ydi. Darhaqiqat, Xudoyorxonni Alloh qo'lladi, unga madadkor bo'ldi, 12 yoshida buyuk bir davlatning podshohi bo'ldi. Bu manbalarda ham qayd etilgan: *Nusratasar va davlat yor bo'lgan lashkar qipchoqlar qochishidan keyin Xudo yor bo'lgan (Xudoyorxon) xonni qidira boshlaganlarida, u nusratasar lashkar qarshisidan babru haydar kabi bir necha jonsipor davlatxohlar va yigirma-o'ttiz nafar korgar suvoriy bilan, janggohning bir tarafidan, chang-u g'ubor daryosida g'arq bo'lgan holda, jangga kirishib, alomat to'foni va havodisot yomg'iridan qutulib, Hofizi bechun himoyasida kelib qaror topdi.* (Ibr.xavoqin, 195)

Demak, *Sayyid Muhammad Xudoyorxon* ismi *sayyidlar* avlodiga mansub xon antroponimik ma'nosini ifodalaydi.

O'zbek tili evfemikasini tadqiq qilgan olim A. Omonturdiyevning yozishicha, "Ota, bobolar nomini avlodlar (bolasi, nevarasi, chevarasi)ga qo'yish udumi ajdodlarni unutmashlik, nomini yod etish, sulola shajarasini saqlash, shu orqali ularni shod etish,

¹⁴ Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари изоҳи. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б. 472.

¹⁵ Qarang. Begmatov E. O'sha lug'at, 471-472-betlar.

ruhlariga ehtirom bildirish bo'ladi, degan g'oya asosida yuzaga kelgan"¹⁶. Bu an'ana Qo'qon xonlari va xonzodalariga ism qo'yishda ham kuzatiladi. Jumaladan, biz bilgan Xudoyorxon ham boshqa Xudoyor ismli xonzoda o'tgan bo'lib, u - Oltin Beshikning nabirasi, ya'ni Sulton Ilikning o'g'lidir. *Sulton Ilik ulg'aygach, uni ham uyulab, Sulton Ilikdan ham bir o'g'il tug'ildi. Uning ismini "Sulton Xudoyor" deb atadilar.* (Ibr.xavoqin, 39) Sulton Ilikning o'zi ham ko'p ismli bo'lib, manbalarda Xudoyorxon, Tangriyorxon deb ataladi: *Uning nomini Tangriyorxon, Xudoyorxon va Sulton Elikxon deb atadilar.* (Anjum., 86)

Nasriddinbek (1850 -1876) - Xudoyorxonning katta o'g'li, 1875-yil iyul - oktyabr oylarida Qo'qon xoni, 1865-1875-yillarda Andijon hokimi bo'lgan. Po'latxon qo'zg'oloni davrida lashkarboshi Abdurahmon oftobachi tomonidan yuborilgan lashkar qo'zg'olonchilar tomoniga o'tib ketadi va amaldorlar tomonidan otasiga qarshi uyushtirilgan fitnada qatnashadi. Ilojsiz sharoitda qolgan Qo'qon xoni tomonidan Nasriddinbek va xon qo'shini yuboriladi va qo'zgonchilarga qo'shiladi. Keyinchalik, Toshkentga qochib ketgan Xudoyorxon o'rniga xon qilib ko'tariladi.

Nasriddin antroponimi tarixiy-etimologik jihatdan arabcha ismlar qatlamiga mansub bo'lib, *dinning g'olibligi, dinning zafari yoki dinning ko'magi, yordami tufayli erishilgan bola* ma'nosiga ega¹⁷.

Ming sulolasidan xon unvonini olgan birinchi hukmdor Olimxon (1798 -1809), oxirgisi Nasriddinxon (1875) edi.

Po'latxon - Is'hoq Hasan o'g'li, Mullo Is'hoq Mullo Hasan o'g'li - Qo'qon xoni (1875-yil 9-oktyabr - 1876-yil 28-yanvar), 1875-1876-yillarda Qo'qon xonligida ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni rahbari. U Andijonda imomlik ham qilgan.

Uning haqiqiy ismi - *Mullo Is'hoq Mullo Hasan o'g'li*. Bo'ston qabilasidan bo'lgan qirg'iz. Taxminan 1844-yilda Uxna qishlog'ida tug'ilgan. Qo'qondagi Tunqotar, keyinchalik Marg'ilondagi Oqmadrassa madrasasida tahsil olgan, otasi mudarris bo'lgan. Is'hoq madrasaning qattiq tartib-qoidalariga chidolmaydi va otasining qarshiliklariga qaramay, 1867-yilda o'qishni tashlab ketadi.

1872-yil Sher dodho boshliq bir guruh qo'qonliklar Samarqandda istiqomat qilayotgan Po'latxonni Qo'qonga taklif qilib, uni xon qilib ko'tarishga va'da qilishadi. Lekin, Po'latxon bu taklifni rad etadi. Shundan so'ng qo'qonliklar Toshkentga kelib, Abdulmo'min otaliq bilan uchrashganlar. Ularning iltimosiga ko'ra, Is'hoq Hasan *Po'latxon* nomi bilan qo'zg'olonga boshchilik qilishga rozi bo'lgan va Namanganga kelib qo'zg'olonga rahbarlik qila boshlagan. Uning tomoniga yirik boy va harbiylar, hatto Xudoyorxonning o'g'li va boshqa qarindoshlari ham o'tgan. 1875-yil 22-iyulda Xudoyorxon Toshkentga qochishga majbur bo'ladi. Xon taxtiga Po'latxon va Xudoyorxonning katta o'g'li Nasriddinbeklar asosiy da'vogarlar edi.

¹⁶ Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутк эвфемикаси. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 28.

¹⁷ Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б. 283.

Muhokama

1873-yilda qirg'izlar Po'latxonni Qo'qon xoni deb e'lon qilgan edilar. Ammo Xudoyorxon Toshkentga qochgandan keyin Abdurahmon oftobachi Nasriddinbekni xon deb e'lon qilib taxtga o'tqizgan. Shu sababli Po'latxon Abdurahmon oftobachi va Nasriddinxonlarga qarshi kurashni boshlab yuboradi. Oqibatda, Qo'qon xonligida ikki hokimiyatchilik paydo bo'ladi. Buning oldini olib, kuchlarni birlashtirish maqsadida Abdurahmon oftobachi 1875-yil 7-avgustda Chor Rossiyasi mustamlakachilariga qarshi g'azavot e'lon qiladi va xalq ozodlik harakatini boshlab yuboradi.

Demak, tarixiy dalillardan anglashiladiki, Po'latxon *Is'hoq Hasan o'g'lining* ikkinchi sun'iy ismi.

Po'latxon antroponimining lug'aviy asosi forsha *po'lat* so'zi juda qattiq, kulrang metall ma'nolarini anglatadi¹⁸. O'zbek xalqida so'zning *mustahkam, qattiq* semalari asosida o'g'il va qizlarga *mustahkam, yashaydigan, umri uzoq bo'lsin* degan niyatda *Po'lat* ismini beradilar. Mazkur ism o'zbek tili antroponimiyasida *Po'lat, Po'latbek, Po'latjon, Po'latboy, Erpo'lat, Jonpo'lat, Mirpo'lat, Shopo'lat, Bekpo'lat, Boypo'lat, Norpo'lat, Xonpo'lat, Nurpo'lat, Eshpo'lat, Chinpo'lat, Sherpo'lat, Hojipo'lat, Mirzapo'lat* kabi shakl va variantlarda uchraydi¹⁹.

Nasriddinxon - Sayyid Muhammad Xudoyorxon III ning o'g'li, Qo'qon xoni (1876-yil 28-yanvar - 1876-yil 19-fevral, 2-marta)

1876-yilda Qo'qon xonligi o'z faoliyatini to'xtatdi.

Mallaxon ibn Sheralixon (taxminan 1830-1862) ming sulolasidan bo'lgan Qo'qon xoni, Xudoyorxonning akasi. 1858-yilgi taxt uchun kurashda Xudoyorxon qo'shinini Somonchi qishlog'i yaqinida yengib, Qo'qonni egallagan va o'zini xon deb e'lon qilgan. 1860-yil Mallaxon qo'shin to'plab Pishpak (hozirgi Bishkek)ka, u yerdan esa Chu daryosi bo'yiga kelgan. Bikat mavzeyida to'plar bilan qurollangan 2 ming kishilik rus qo'shini bilan bo'lgan jangda Mallaxon qo'shini g'olib chiqqan. Lekin 1860-yil G.A.Kolpakovskiy otryadi tomonidan Uzunog'och mavzeyida tor-mor keltirilgan. 1860-1861-yillari Turkistonni himoya qilish uchun Qanoatshohni jo'natgan, biroq bu qo'shin Turkiston shahrini, Julek, Yangiqo'rg'on atrofidagi dasht aholisini talab orqaga qaytgan. Mallaxon qal'alarni qaytarib olish uchun bir necha bor harakat qilgan, lekin bu zoye ketgan. Bu esa unga qarshi norozilikni yuzaga keltirgan. Shuningdek, og'ir soliq va majburiyatlar, muholifatga qarshi jazo choralari unga qarshi fitna uyushtirilishiga olib kelgan. Mallaxon 1862-yil mart oyida o'ldirilib, o'rniga 17 yoshli Shoh Murod xon deb e'lon qilinadi. Mallaxon aqlli davlat arbobi, mohir sarkarda bo'lgan.

¹⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2023. – III j. – B. 836-837.

¹⁹ Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б. 342-343.

Sulton Sayidxon ibn Mallaxon (?-1868) (1863-1865) Qo‘qon xonligida Sulton Sayidxon 1863-yil iyulda qirg‘izlar va qipchoqlar amiri lashkar Alimqul boshchiligida hokimiyatni egallagan. Sulton Sayidxon nomigagina xon qilib ko‘tarilgan, amalda davlat ishlari Alimqul qo‘lida bo‘lgan. Rus qo‘shinlari bu paytda Yangiqo‘rg‘on, Pishpak, Marki, Avliyoota, Turkiston, Chimkentni bosib olishgan. 1865-yil bahorida M.G.Chernyayev boshchiligidagi qo‘shin Toshkentni qamal qilgan. Sulton Sayidxon Alimqul bilan birga Toshkent mudofaasiga rahbarlikni o‘z qo‘liga olgan. Alimqul jangda o‘ldirilgach, qirg‘iz va qipchoqlar qo‘shini Qo‘qonga qaytib kelib, taxtga boshqa xonni o‘tqazish payiga tushgan. Tarixchi Muhammad Solihning yozishicha, Toshkent xalqi Sulton Sayidxonga sodiq qolib, uni qayta xonlik taxtiga o‘tqazishadi. Shu ravishda Toshkent o‘z xoniga ega bo‘lib, Qo‘qondan mustaqilligini namoyish etadi. Sulton Sayidxon Rossiya tajovuziga qarshi yordam so‘rab Turkiya sultoniga, Buxoro amiriga va Qo‘qonga elchilar jo‘natgan. Buxoroga sebzorlik eshon *Hakimxo‘ja qozikalon* boshchiligida har dahadan to‘rt oqsoqol yuboriladi. Buxoro amiri o‘z maktubida Sulton Sayidxon uning huzuriga kelib bo‘ysunishi va shundan keyingina Toshkentga yordam berishi mumkinligini yozgan. Amirning bu talabi qoldirilgan.

Qo‘qon xonligi antroponimiyasining asosini xonlikni boshqargan hukmdorlarning ismlari tashkil etadi, ularning umumiy miqdori 30 dan ziyod.

XULOSA

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Qo‘qon xonligi davri hukmdorlari ismlari oddiy nominativ birlik emas, balki murakkab antroponimik model hisoblanadi. Ular ko‘pincha ism + unvon (biy, bek, xon) qolipida shakllanib, shaxsning sulolaviy mansubligi va siyosiy maqomini ifodalagan. Ismlarning muhim qismi arabcha va forsha diniy qatlamga mansub bo‘lib, farzandni ilohiy himoya ostiga topshirish, ulug‘ shaxslarga o‘xshatish kabi motivlar asosida qo‘yilgan. Shuningdek, ajdodlar nomini takrorlash, seriyali (uyqash) ismlar berish, laqab orqali shaxs fazilatini ifodalash an‘anasi kuchli bo‘lgan. Bu holat turkiy-islamiy nomlash madaniyati hamda tarixiy davlat boshqaruvi tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Xon unvoni esa tarixan Chingizxon avlodiga bog‘lash orqali siyosiy legitimlik ramzi sifatida ham xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қўқон хонлиги // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. - 11-ж. - Б. 156.
2. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. - Б. 506.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2023. - 2-j. - B. 401.

4. Кенжаева С.Э. Ўзбек тили антропонимларининг номинацион-мотивацион асослари ва тавсифи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. ... диссер. - Қарши, 2019. - Б. 150. 213 б.
5. Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси. - Тошкент: Фан, 2006. - Б. 28.
6. Sulaymonbek (ziyouz.com)